



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 2-son

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI**

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,
K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 28.04.2025-yilda
bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 15,8
Adadi: 100. Buyurtma: № 84.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев, К. Абдувалиева, Й. Махмудов, М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
28.04.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 15,8. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 84.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© **Ташкентский государственный
юридический университет**

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 28.04.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 15,8.

Units: 100. Order: № 84.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law. 100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne’matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **ALIYEV ILHOMJON MUROD O’G’LI**
Sun’iy intellekt texnologiyalarini O’zbekiston Respublikasi adliya organlari faoliyatiga tatbiq etish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH**
Zamonaviy kiberkorupsiya: tushunchasi, muammolari va Markaziy Osiyo hududida unga qarshi kurashish choralari
- 30 **JUMAG’ULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: yangi huquqiy institutga tarixiy nazar
- 38 **INOYATOV NODIRBEK XAYITBOY O’G’LI**
Sun’iy intellekt va avtonom transport vositalari: raqamli davrda huquq subyektliligi masalalari
- 47 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Sog’liqni saqlash sohasida sun’iy intellektni joriy etishdagi normativ to’siqlar
- 55 **SAIDOV BOBUR BAXROMJONOVICH**
Metaolamlarni huquqiy tartibga solish: virtual dunyoda yurisdiksiya va intellektual mulkni himoya qilish masalalari
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
AQShda robot-maslahatchilar faoliyatini tartibga solish xususiyatlari
- 91 **NURULLAYEV UMIDBEK XUDAYBERDIYEVICH**
O’zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligida axborot vositachisining huquqiy maqomi masalalari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 101 **ABDULLAYEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Chet el fuqarolari bilan nikohni qayd etish masalalari va bu boradagi xalqaro qonunchilik asoslari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 111 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDIN QIZI**
Xorijiy mamlakatlarda yer servitutining turlari va ularning huquqiy tabiati
- 125 **TURDIYEV BOBIR SOBIROVICH**
Atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki: xalqaro standartlar va xorij tajribasi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 141 **RAXMANOV SHUXRAT NAIMOVICH**
Xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqining umumiy xalqaro huquq tizimidagi o’rni: nazariy-metodologik yondashuvlar

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT QIZI**
Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki tushunchasi va tavsifi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH.
PROBATSIIYA FAOLIYATI

- 161 **XO’JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH**
Jamoat xavfsizligini ta’minlashni takomillashtirish: Turkiya tajribasi va O’zbekiston uchun istiqbollar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 **АЛИЕВ ИЛХОМЖОН МУРОД УГЛИ**

Внедрение технологий искусственного интеллекта в деятельность органов юстиции
Республики Узбекистан

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

17 **РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ, ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ**

Современная киберкоррупция: понятие, проблемы и пути противодействия
в Центральноазиатском регионе

30 **ЖУМАГУЛОВ АЛИШЕР ЭРНАПАСОВИЧ**

Сукук: исторический взгляд на новый правовой институт

38 **ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙИТБОЙ УГЛИ**

Искусственный интеллект и автономные транспортные средства: вопросы правовой
субъектности в цифровую эпоху

47 **КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА**

Нормативные барьеры внедрения искусственного интеллекта в здравоохранении

55 **САИДОВ БОБУР БАХРОМЖОНОВИЧ**

Правовое регулирование метавселенных: вопросы юрисдикции и защиты интеллектуальной
собственности в виртуальных мирах

81 **НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА**

Особенности регулирования деятельности роботов-консультантов в США

91 **НУРУЛЛАЕВ УМИДБЕК ХУДАЙБЕРДИЕВИЧ**

Правовой статус информационного посредника в законодательстве Узбекистана и зарубежных стран

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

101 **АБДУЛЛАЕВА РИСОЛАТ СУННАТОВНА**

Вопросы регистрации браков с иностранными гражданами и международно-правовые основы
в этой сфере

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

111 **АБДУСАМАДОВА ЗАРИНА ШОБИДДИН КИЗИ**

Типы сервитутов в зарубежных странах и их правовая природа

125 **ТУРДИЕВ БОБИР СОБИРОВИЧ**

Участие общественности в принятии решений, касающихся окружающей среды:
международные стандарты и зарубежный опыт

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

141 **РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ**

Место дипломатического права международных организаций в системе международного права:
теоретико-методологические подходы

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

150 **НОСИРОВА МАРЖОНА НЕГМАТ КИЗИ**

Понятие и характеристика участия некоммерческих негосударственных организаций
в защите прав человека

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

161 **ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ**

Совершенствование обеспечения общественной безопасности: опыт Турции и перспективы для
Узбекистана

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **ALIEV ILKHOMJON MUROD UGLI**
Implementation of artificial intelligence technologies in the activities of the justice authorities of the Republic of Uzbekistan

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH**
Modern cybercorruption: concept, challenges, and countermeasures in the Central Asian region
- 30 **JUMAGULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: a historical view of the new legal institution
- 38 **INOYATOV NODIRBEK KHAYITBOY UGLI**
Artificial intelligence and autonomous vehicles: issues of legal subjectivity in the digital era
- 47 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**
Regulatory barriers to the implementation of artificial intelligence in healthcare
- 55 **SAIDOV BOBUR BAKHROMJONOVICH**
Legal regulation of metaverses: issues of jurisdiction and intellectual property protection in virtual worlds
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Features of regulating robo-advisors in the USA
- 91 **NURULLAEV UMIDBEK KHUDAYBERDIYEVICH**
Issues of the legal status of an information intermediary in the legislation of Uzbekistan and foreign countries

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 101 **ABDULLAEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Issues of marriage registration with foreign citizens and the foundations of international legislation in this regard

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 113 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDINOVNA**
Types of servitudes in foreign countries and their legal nature
- 125 **TURDIEV BOBIR SOBIROVICH**
Public participation in environmental decision-making: international standards and foreign experience

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 141 **RAKHMANOV SHUKHRAT NAIMOVICH**
The role of the diplomatic law of international organizations in the general system of international law: theoretical and methodological approaches

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT KIZI**
The concept and descriptions of the participation of non-governmental non-profit organizations in the protection of human rights

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 161 **KHUJAMBERDIYEV FARRUKH KOMILOVICH**
Improving public safety ensuring: the experience of turkey and prospects for Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 13.03.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.04.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 28.04.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2./HONC1516
UDC: 342.9:004.8(045)(575.1)

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATIGA TATBIQ ETISH

Aliyev Ilhomjon Murod o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Qonunchilik va huquqiy
siyosat instituti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0001-2118-1555
e-mail: ilhomaliyevv2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hamda kundalik hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib borayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Sun'iy intellektning asosiy turlari, funksiyalari va vazifalariga ko'ra tasnifi keltirilgan. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni davlat boshqaruvi sohasiga tatbiq etishning afzalliklari va istiqbollari yoritilgan. Maqolada xorijiy mamlakatlarning davlat boshqaruvida sun'iy intellektdan foydalanish borasidagi tajribalari va ularning amaliyotidan misollar keltirilgan. Xususan, bu boradagi huquqshunos olimlar, sun'iy intellekt sohasidagi xalqaro mutaxassislar va amaliyotchilarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Mazkur qarashlar va tajribalarni tahlil qilish natijasida O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tizimiga, jumladan, mavjud elektron platformalarga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish zarurati asoslab berilgan. Bu davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, ko'rsatilayotgan xizmatlarning tezkorligi va aniqligini oshirish hamda muntazam bajariladigan vazifalarni avtomatlashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni asoslashga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli texnologiya, smart-office, Face ID, identifikatsiya, elektron platforma

ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ ЮСТИЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Алиев Илхомжон Мурод угли,
базовый докторант Института законодательства и правовой политики
при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В настоящей статье представлена общая информация о технологиях искусственного интеллекта, которые сегодня стремительно развиваются и глубоко проникают во все сферы повседневной жизни. Приведена классификация основных видов, функций и задач искусственного интеллекта. Освещены преимущества и перспективы

внедрения данных технологий в сферу государственного управления. В статье проанализирован зарубежный опыт использования искусственного интеллекта в государственном управлении, приведены конкретные примеры из практики, а также изучены мнения зарубежных и отечественных правоведов, международных экспертов и практиков в области искусственного интеллекта. На основе анализа данных взглядов и опыта обоснована необходимость интеграции технологий искусственного интеллекта в систему органов юстиции Республики Узбекистан, включая существующие электронные платформы, с целью обеспечения прозрачности в государственном управлении, повышения скорости и точности предоставляемых услуг, совершенствования системы автоматизации рутинных функций. В статье также уделено особое внимание обоснованию рекомендаций по совершенствованию системы рассмотрения обращений физических и юридических лиц.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая технология, умный офис, Face ID, идентификация, электронная платформа

IMPLEMENTATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE ACTIVITIES OF THE JUSTICE AUTHORITIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Aliev Ilkhomjon Murod ugli,

Basic doctoral student at the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article provides an overview of artificial intelligence technologies that are rapidly developing today and deeply penetrating all aspects of daily life. A classification of the main types, functions, and tasks of artificial intelligence is given. The advantages and prospects of applying these technologies in the field of public administration are also highlighted. The article provides examples of the experience of foreign countries in the field of using artificial intelligence in public administration and their practice. In particular, the opinions of legal scholars, international experts in the field of artificial intelligence, and practitioners in this area were studied. As a result of the analysis of these views and experiences, the need to introduce artificial intelligence technologies into the system of justice bodies of the Republic of Uzbekistan, including existing electronic platforms, was substantiated. This will be implemented to ensure transparency in public administration, increase the efficiency and accuracy of services provided, and improve the system for automating routine tasks. The article also focuses on substantiating recommendations for improving the system for considering appeals from individuals and legal entities.

Keywords: artificial intelligence, digital technology, smart office, FaceID, identification, electronic platform

Kirish

Hozirgi zamonaviy globallashtirilgan davrda sun'iy intellekt (SI) kundan kunga jadal rivojlanib bormoqda. U davlat va jamiyatning turli sohalarida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar hamda jarayonlarning asosiy elementiga aylanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining SI bilan o'zaro integratsiyalashuvi natijasida esa uning davlat xizmatlari va davlat boshqaruvi sohasiga tatbiq etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Davlat boshqaruvi innovatsion yangiliklar va yechimlarning muhim obyektiga aylanmoqda va SIni joriy etish ularni ancha tez, xavfsiz va samaraliroq ta'minlashga yordam beradi. Rivojlangan mamlakatlar mazkur amaliyotni yaxshi darajada yo'lga qo'yganligi va sezilarli yutuqlarga erishayotganligini inobatga olgan holda, ushbu texnologiyaning O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi sohasiga ham

tatbiq etilishi va mavjud bo'lganlarining takomillashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Xususan, SIning davlat boshqaruvi sohasiga tatbiq etilishi shaharsozlikni rivojlantirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa fursatda tahlil qilish va yaxshilangan qaror qabul qilish, huquqni muhofaza qilish organlariga kuzatuv tizimini yaxshilash, fuqarolarning so'rovlari va murojaatlarini qabul qilish hamda bu orqali kutish vaqtlarini kamaytirish, fuqarolarning zamonaviy SI texnologiyalari bo'yicha bilim va malakalarini oshirish, davlat xizmatlaridagi muntazam vazifalar va xizmatlarning avtomatlashtirilishi orqali xarajatlarning qisqartirilishi, tarafkashlikka yo'l qo'ymaslik hamda shaffoflikni ta'minlash kabi yo'nalishlarda samaradorlikka erishishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalari davlat xizmatchilariga mamlakat rivoji uchun muhim bo'lgan strategik tashabbuslarga ko'proq e'tibor va vaqt ajratish imkonini ham beradi.

Shu o'rinda SI texnologiyalarini davlat boshqaruvi sohasiga tatbiq etish bo'yicha Ukrainaning Ta'lim boshqaruvi universiteti (University of Educational Management) "Davlat boshqaruvi va loyihalarni boshqarish" kafedrasi doktoranti Herasym Dei tomonidan olib borilayotgan izlanishlarni alohida ta'kidlash joiz. U o'z maqolasida SI texnologiyalarining davlat boshqaruviga joriy etilishining afzalliklari, salbiy jihatlari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar haqida batafsil ma'lumot bergan. Uning fikriga ko'ra, SI texnologiyalaridan foydalanish boshqaruvning shaffofligi, samaradorligi va javobgarligi darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini kuchaytirishga xizmat qiladi [1].

Material va metodlar

Sun'iy intellekt tarixan faqat inson bajarishi mumkin bo'lgan mulohaza yuritish, o'rganish, qaror qabul qilish yoki muammolarni hal qilish kabi murakkab vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan kompyuter tizimlarini nazar-

da tutadi. "Sun'iy intellekt" atamasi axborotni qayta ishlash, o'rganish, muammolarni hal qilish, bashorat qilish va bilish kabi insonning kognitiv funksiyalarini taqlid qiluvchi tizimlarni idrok etish uchun qo'llanadi. Bu kabi funksiyalarga nutqni aniqlash, rejalashtirish, navigatsiya, ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni taqdim etish va o'rganish kiradi.

Boshqacha qilib aytganda, SI insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o'rganish va yechimlar izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmuidir.

SI tizimlari turlarining ildizlari o'nlab yillarga borib taqalsa-da, so'nggi yillarda SI texnologiyalari rivojlanishi tezlashdi. Hozirgi kunda mavjud SI tizimlarining ba'zilar ma'lumotlar ishlab chiqaradi, ba'zilar hisob-kitob qiladi hamda boshqalari esa muammolarni aniqlaydi. Shunga ko'ra, SI tizimlarining asosiy farqi ularning natijalaridadir. SIning turlari quyidagilar:

1. Generativ SI

Sun'iy intellektning eng ko'p qo'llanadigan turlaridan biri bo'lib, ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchi kiritgan ma'lumotlarga asoslangan holda, ularni o'rganish orqali yangi bilimlar hosil qilish imkonini beradi. Hozirgi kunda butun jahonda kundan-kunga ommalashib borayotgan OpenAIning ChatGPT dunyosi yaqqol misol bo'la oladi. Generativ SI yangi rasmlar, matnlar, audio, video yozuvlar va hattoki musiqa yaratishi ham mumkin [2]. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Generativ SIning imkoniyatlari unga taqdim etilayotgan ma'lumotlar va vazifalarga qarab kengayadi.

2. Mashinani o'rganish (Machine learning)

SIning ushbu turi kompyuter tizimlaridagi ma'lumotlar va naqshlarni o'rganadi. Keyin esa kelajakdagi vazifalarni boshqarish, takomillashtirish va avtomatlashtirish uchun taqdim etilgan va kiritilgan ma'lumotlarga asoslangan holda ish yuritadi. Ushbu texnologiya

yordamida davlat idoralari avtomatlashtirilgan murojaatlarni qayta ishlash va fuqarolar bilan muloqotni soddalashtirish imkoniga ega bo'lmog'da. Masalan, elektron hujjatlar-ni tahlil qilish va javob qaytarish tizimlarida qo'llanadi.

3. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural language processing (NLP))

Ushbu turdagi SI algoritmlarining asosiy vazifalari nutqni aniqlash, matnni tasniflash, tabiiy tilni tushunish va tabiiy tilni yaratishdan iborat. Generativ SI dan asosiy farqi esa Generativ SI yangi matn va ma'lumot yaratish uchun NLP o'rganishidan foydalanadi. NLP modellari ham matn va hujjatlarni tarjima qilish, tasniflash va tabiiy tilni yaratish jarayonida Generativ SI ga murojaat qiladi [2].

4. Kompyuter ko'rish va tasvirni qayta ishlash (Computer vision and image processing)

Bunda minglab yoki millionlab tasvirlar, videolar va boshqa vizual ma'lumotlarning aniq bir qismini aniqlash, obyekt-ni tanib olish, tasvirlash yoki ajratib olish uchun SI va naqshni aniqlash usullaridan foydalanadigan bir-biri bilan uzviy bog'liq ikki soha tushuniladi. Tasvirni qayta ishlash algoritmlari rasm, video va vizual tasvirlardan ma'lumotlar olish yoki ularni tiklash kabi tajribalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi. Misol uchun, hozirgi kunda insonning imkoniyatlari yetmaydigan va imkonsizdek tuyulgan vaziyatda SI ning tasvirni qayta ishlash turi minglab yillar avvalgi inson ko'rinishlarini qayta tiklamoqda, rasmdan tortib bir necha daqiqa davom etuvchi filmgacha yaratmoqda.

Kompyuter ko'rish esa ma'lumotlarni tanib olish va tasniflash uchun ishlatiladi. SI ning mazkur turi esa tasvirlardan naqshlarni aniqlash, tiklash va tanib olish kabi funksiyalarda insonlarning kognitiv imkoniyatlaridan oldinlab bormoqda. Kompyuter ko'rish sog'liqni saqlash, ta'lim, ommaviy axborot vositalaridan tortib transport sohasigacha tatbiq etilmoqda. Misol uchun, transport sohasida

kompyuter ko'rishdan obyektlar va atrof-muhitni kuzatish, haydovchiga yordam berish va avtonom navigatsiyani yoqish uchun foydalaniladi.

Shuningdek, kompyuter ko'rish tizimi davlat boshqaruvi sohasida video nazorat tizimlarini avtomatlashtirish, transport oqimlarini boshqarish va xavfsizlik choralari-ni kuchaytirishda ishlatiladi.

5. Chuqur o'rganish (Deep learning)

Chuqur o'rganish algoritmlari neyron tarmoqlar asosida ko'p holatda chuqur neyron tarmoqlar (Deep neural networks (DNNs)) asosida ishlab chiqilgan. Ushbu algoritmlar yordamida turli sohalar-da real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkoniyatlari yaratiladi. Masalan, energiya taqsimotini optimallashtirish yoki tezkor yordam xizmatlarini boshqarishda, shuningdek, shahar infratuzilmasini rejalashtirish yoki tabiiy ofatlar xavfini baholashda qo'llanadi. Bu borada esa insoniyat imkoniyatlaridan yuqorilab bormoqda, ya'ni SI ning ushbu turi aql bovar qilmaydigan darajadagi murakkab qarorlarni ham qabul qilishi mumkin [2].

Chuqur o'rganish va mashinani o'rganish o'rtasidagi asosiy farq neyron tarmoq arxitekturasining tuzilishidir. Xususan, u avtomatlashtirish tizimlarini yaxshilaydi, analitik va jismoniy kuch sarf etiladigan takroriy vazifalarni inson aralashuvisiz bajaradigan ko'plab ilovalar va xizmatlarni boshqaradi. Bular-ga misol sifatida esa ovoqli televizor pultlari, haydovchisiz avtomobillar va samolyotlar, dronlar va Generativ AI ning ko'plab xizmatlarini keltirish mumkin [3].

SI texnologiyalari bugungi kunda inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Ushbu texnologiyalar davlat boshqaruvi jarayonlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirishda ulkan imkoniyatlar taqdim etishi kutilmoqda. Sun'iy intellektni davlat boshqaruviga joriy etish orqali qaror qabul qilishning tezkorligi, shaffofligi va aniqligi sezilarli darajada oshishi mumkin.

SI texnologiyalari nafaqat iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va ta'limda, balki davlat boshqaruvi tizimida ham katta o'rin egallamoqda.

Davlat boshqaruvi – bu jamiyat va xalq manfaati uchun siyosat yurituvchi hamda davlatga o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuchdir. Davlat boshqaruvi kengroq tushuncha bo'lib, davlat organlari va muassasalarining yaxlit iyerarxik tizimi hisoblanadi. Uning yaxlitligi, avvalo, davlat hokimiyati va uning irodasi yagonaligi, davlat organlari va muassasalari faoliyati tamoyillari, vazifalari va maqsadlari yagonaligi bilan ifodalanadi [4].

Davlat organi davlat funksiyalarini bajarishda qatnashuvchi va buning uchun tegishli hokimiyat vakolatlariga ega davlat mexanizmining bo'g'inidir [4].

SI davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari samaradorligini oshiradi hamda fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Mazkur texnologiyalardan foydalanish orqali amaliy ishlarining tezkorligi, aniqligi va eng muhimi, shaffofligi ta'minlanadi. Xususan, SIning davlat boshqaruvi sohasiga tatbiq etilishi va mavjud tizimlarning takomillashtirilishi natijasida quyidagi samaradorliklarga erishiladi:

- shaffoflikni ta'minlash;
- katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa fursatda tahlil qilish va asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatini oshirish;
- huquqni muhofaza qilish organlariga kuzatuv tizimlari va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, huquqbuzarlik hamda jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiluvchi bashorat va takliflar ishlab chiqish;
- fuqarolarning so'rovlari va murojaatlarini tez va samarali qabul qilish orqali kutish vaqtlarini qisqartirish, shuningdek, fuqarolarning zamonaviy SI texnologiyalari bo'yicha bilim va malakalarini oshirish;
- fuqarolar bilan interaktiv aloqani mustahkamlash va ularning fikrlarini hisobga olish;

– davlat xizmatlaridagi muntazam vazifalarni avtomatlashtirish orqali ortiqcha xarajatlarni qisqartirish;

– tarafkashlik hamda tanish-bilishchilikka yo'l qo'ymaslik.

SI texnologiyalari tobora rivojlanib borayotgan hozirgi davrda ushbu imkoniyatlarni inobatga olgan holda, ularni davlat boshqaruvi sohasiga keng joriy etish, ayniqsa, so'ngi yillarda raqamli texnologiyalar faol tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimi faoliyatida sun'iy intellektdan foydalanish doirasini kengaytirish mazkur sohaning samarali rivojlanishiga munosib hissa qo'shadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi prorektori, professor A.Y. Umarovning ta'kidlashicha, davlat fuqarolik xizmatlarida sun'iy intellektdan foydalanishda to'rtta asosiy vazifa mavjud [5]:

birinchisi – sun'iy intellektning davlat boshqaruvida qo'llanishining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish;

ikkinchisi – sun'iy intellekt texnologiyalarining fuqarolik xizmatlariga ta'sirini tahlil qilish;

uchinchisi – davlat boshqaruvida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish;

to'rtinchisi – O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt imkoniyatlarini baholash va istiqbolli yo'nalishlarni belgilash.

Shu jumladan, Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan 2024-yil 21-mayda qabul qilingan "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonun 2024-yil 1-avgustda kuchga kirgan. Mazkur qonunda sun'iy intellekt texnologiyalarini adliya organlari faoliyatiga tatbiq etish bo'yicha aniq normalar keltirilmagan bo'lsa-da, 96-moddada asosiy huquqlarning samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida yuqori xavfli [6] sun'iy intellekt tizimlarini joriy etuvchi davlat boshqaruvi organlari yoki davlat xizmatlari ko'rsatuvchi xususiy subyektlar tomonidan ushbu tizimlardan foydalanishdan oldin aso-

siy huquqlarga ta'sirni baholash (fundamental rights impact assessment) [6] o'tkazilishi lozimligi belgilangan. Bu baholashdan ko'zlangan maqsad – bu tizimdan zarar ko'rish mumkin bo'lgan shaxslar yoki guruhlar huquqlariga xos xavflarni aniqlash hamda bu xavflar yuzaga kelgan taqdirda, ularni bartaraf etish yoki yumshatish bo'yicha choralarni belgilashdir [6].

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli qarorida raqamli hukumat sohasida quyidagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish belgilab qo'yilgan:

- raqamli davlat xizmatlarini ko'rsatishda foydalanuvchilarni masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) bo'yicha sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

- sohada nutqni aniqlash va sintezlash texnologiyalari, "tabiiy tilga ishlov berish" (LLM hamda NLP) kabi yo'nalishlarni rivojlantirish;

- yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida chat-botlar yaratish;

- ko'rsatiladigan xizmatlarni to'liq avtomatlashtirish va qisqa vaqt davomida sifatli xizmat ko'rsatilishini yo'lga qo'yish;

- rejalashtirish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarining samaradorligini oshirish;

- davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ularni taqdim etishda fuqarolar uchun qulayliklar yaratish;

- sun'iy intellekt va "katta ma'lumotlar" bilan ishlash uchun superkompyuter va "bulutli platformalar"ni rivojlantirish.

Shuningdek, mazkur qarorda strategiyani mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirish doirasida SI texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohada standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim

va ko'nikmalarini oshirib borish kabi asosiy maqsad va vazifalar ham belgilab qo'yilgan.

Qarorda belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, joriy yilning 20-fevral kuni O'zbekiston Respublikasining Raqamli texnologiyalar vazirligi va hozirgi kunda dunyoning yetakchi texnologik kompaniyalaridan biri bo'lgan NVIDIA kompaniyasi hamkorligida Toshkent shahridagi INHA universitetida SIga bag'ishlangan seminar tashkil etildi. Mazkur seminarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, biznes va davlat sektorida SI texnologiyalaridan samarali foydalanish, shuningdek, yoshlar va mutaxassislar uchun sun'iy intellekt bo'yicha ilg'or bilimlarni taqdim etish masalalari muhokama qilindi [7].

Tadqiqot natijalari

Chet el tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, SI ni davlat boshqaruvi sohasiga tatbiq etish va undan foydalanish ishlari turli rivojlangan mamlakatlarda allaqachon boshlangan. Xususan, joriy yilning 20-yanvar kuni Janubiy Koreyada Fridrix Nauman nomidagi Koreya Ozodlik jamg'armasi (KFNF) Koreyaning Mahalliy axborot tadqiqot va rivojlantirish instituti (KLID) bilan hamkorlikda "Davlat boshqaruvida sun'iy intellekt" mavzusida qo'shma forum tashkil qildi. Mazkur forumda KLID ijrochi menejeri Micha Cho "The birth of AI financial super service" mavzusida taqdimot qildi va Janubiy Koreya shaharlari, jumladan, Incheon shahrida sun'iy intellektning davlat boshqaruvida muvaffaqiyatli joriy etilayotganini ta'kidladi. Bu, ayniqsa, shaharni rivojlantirish rejalari uchun muhim ahamiyat kasb etayotganini qayd etdi [8].

Shu kabi tajribalardan kelib chiqqan holda, SI ni davlat boshqaruvi sohasiga tatbiq etish masalasi raqamli texnologiyalar faol qo'llanayotgan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tizimi misolida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan, raqamli hukumat sohasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi va uning hududiy

organlarining “Smart-office” elektron platformasiga SI texnologiyasini joriy etish hamda mavjud bo‘lgan qismlarini takomillashtirish, shuningdek, adliya organlari tomonidan davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimi monitoringi natijasida aniqlangan huquqbuzarliklarni SI yordamida aniqlab, javobgarlik belgilash tizimini joriy etish orqali tizim faoliyatini tubdan yaxshilash va samaradorlikka erishish mumkin. Xususan, SI texnologiyalari ishlash jarayonini takomillashtirishda quyidagi asosiy o‘zgartirishlar kiritilishi maqsadga muvofiq.

Birinchidan, “Smart-office” platformasiga SI texnologiyalarini joriy etish va umumiy nazoratni amalga oshirish. Sun‘iy intellekt yordamida murojaatlarning ko‘rib chiqilish muddatlarini samarali nazorat qilish hamda ijro jarayonida inson omilining salbiy ta‘sirini kamaytirish mumkin. Fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish muddatlari qat‘iy belgilangan bo‘lib, ularning asossiz sabablar bilan uzaytirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Misol uchun, “Smart-office” elektron platformasida har bir adliya xodimi uchun alohida profil yaratilgan bo‘lib, ayniqsa, tuman (shahar) adliya bo‘limlari boshliqlari, viloyat hududiy boshqarmalari rahbarlari va vazirlik darajasidagi mas‘ul xodimlar uchun nazorat funksiyasi mavjud. Mazkur funksional imkoniyat doirasida sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali qat‘iy va tizimli nazorat mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bu xodimlarning mas‘uliyatini oshirish hamda murojaatlarni o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqishni ta‘minlaydi. Bundan tashqari, hududiy adliya organlari tomonidan yuqori turuvchi organlarga hisobot berish yanada soddalashtiriladi hamda bu orqali hisobot shakllantirish uchun sarflanadigan vaqt tejab qolinadi, shuningdek, statistik ma‘lumotlarni sun‘iy oshirish kabi salbiy holatlarning oldi olinadi.

Ikkinchidan, murojaatchilarga elektron shaklda javob yuborish. Javob xatlarini fuqarolarga “Gibrid pochta” xizmati orqali emas, balki elektron shaklda murojaatchilarning te-

lefon raqamlari yoki elektron pochta manzillariga yuborish orqali tezkor va qulay xizmat ko‘rsatish mumkin. Bu, bir tomondan, vaqtni tejaydi, ikkinchi tomondan, pochta xizmatlariga ketadigan xarajatlarni kamaytiradi, ya‘ni ushbu amaliyot uchun sarflanadigan ko‘plab qog‘oz mahsulotlari, transport xizmatlari va yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan maoshlar uchun ajratiladigan mablag‘larning tejab qolinishiga erishiladi.

Uchinchidan, murojaatchilar fikrini SI yordamida qayd etish. Fuqarolardan ularning murojaatlari bo‘yicha yuborilgan javob xatlaridan qoniqish darajasi haqida fikr-mulohazalarni telefon raqamlari yoki elektron pochta manzillari orqali olish imkoniyatini yaratish zarur. Mazkur jarayon sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida murojaatlarning qanoatlantirilganlik darajasini inson omilidan mustaqil ravishda baholash va aniqlash imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, shaffoflikni oshirish hamda inson omilining ta‘sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi holatda javob xatini olgan fuqarolar mazkur javob xati orqali ma‘lum qilingan murojaatni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu vaziyatda, albatta, SIning yordami zarur. Vaholanki, SI ishtirok etgan protsessda hech qanday statistik jihatdan sun‘iy oshirishlar, yashirishlar yoki boshqa shu kabi ko‘rsatmalar berishning oldi olinadi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari adolatli va shaffof tarzda ko‘rib chiqiladi. Nafaqat adliya organlari, balki boshqa barcha davlat organlari va tashkilotlar xodimlari ham murojaatlarga alohida mas‘uliyat bilan yondashib, ularni ko‘rib chiqadi.

Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish joizki, hozirgi kungacha tuman (shahar) adliya bo‘limlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas‘uliyatini yanada oshirish

hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi PF-80-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida mahallalarda uyma-u yurishlar, "Huquqiy ko'mak" aksiyasi, shuningdek, "Adliya kuni" va "Huquqiy targ'ibot" tadbirlari muntazam o'tkazib kelinmoqda. Ushbu tadbirlar davomida aholining kundalik hayotida uchrayotgan huquqiy muammolar, shuningdek, ular tomonidan ko'tarilayotgan turli sohalarga oid dolzarb masalalar aniqlanmoqda.

Mazkur huquqiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda murojaatlarni ko'rib chiqish natijasida yuborilgan javob xatlariga bildirilgan fikrlar asosida aholining munosabati inobatga olinadi. Bu esa ularning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli qarorining 2-ilovasida 2025-yil iyun oyiga qadar Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va tartibga solishga oid normativ-huquqiy bazani shakllantirish bo'yicha sa'y-harakatlar, chora-tadbirlar rejaları hamda qonunchilik hujjatlari loyihalarini taqdim etish belgilangan.

Shu asosda ushbu qonunchilik hujjatlarida sun'iy intellektning amaldagi huquqiy tizimdagi maqomini belgilash, qonunchilikka Yevropa Ittifoqining "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonunida taklif etilgani kabi, sun'iy intellekt turlarini xavflilik darajasiga ko'ra tasniflash, shuningdek, ushbu texnologiyalarni jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tizimiga joriy etish va davlat organlari hamda tashkilotlar tomonidan murojaatlarni ko'rib chiqish holatini sun'iy intellekt yordamida nazorat qilishga oid aniq normalar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xuddi shuningdek, mazkur tajriba va normativ-huquqiy normalarning boshqa davlat

organlari va tashkilotlari faoliyatida ham joriy etilishi yagona tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonlarini yanada takomillashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga olib keladi.

Xulosalar

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, adliya organlari faoliyatiga SI texnologiyalarini joriy etish, ya'ni ularning elektron platformasi – "Smart-office" tizimiga tatbiq etish orqali yagona va qat'iy nazorat tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha yozilgan javob xatlarini elektron shaklda murojaatchilarning telefon raqamlari yoki elektron pochta manzillariga havola ko'rinishida yuborish tizimini yo'lga qo'yish, shuningdek, ushbu javob xatlari yoki murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan murojaatchilarning fikrlarini o'sha havola orqali bildirish imkonini yaratish va ularni adliya organlarining elektron platformasida umumlashtirish amaliyotini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur amaliyotlar orqali tizimda shaffoflikni ta'minlash, fuqarolar bilan interaktiv aloqani mustahkamlash, ularning fikr va takliflarini hisobga olish, ortiqcha xarajatlar va eng muhimi, vaqt sarfini kamaytirish kabi ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Shu tariqa adliya organlari faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish orqali mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonining samaradorligini oshirish va aholining murojaatlarini ko'rib chiqish sifatini yanada yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu maqsad va vazifalarga erishish uchun, eng avvalo, SI imkoniyatlaridan foydalanishning aniq chegarasini belgilab olish, uni davlat boshqaruviga joriy etish va amaliyotda qo'llashning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, xususan, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni muvofiqlashtirish lozim.

REFERENCES

1. Herasym D. Artificial intelligence in public administration: benefits and risks. *Management (Montevideo)*, 2025, vol. 3(137). Available at: <https://managment.ageditor.uy/index.php/managment/article/view/137> DOI:10.62486/agma2025137
2. How AI is used in the public sector. Andrea Rosales, Lead Data Scientist at Colibri Digital. England. Available at: <https://www.nasstar.com/hub/blog/how-ai-is-used-in-the-public-sector>
3. Holdsworth J., Scapichchio M. What is deep learning? Available at: <https://www.ibm.com/think/topics/deep-learning>
4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of State and Law]. Tashkent, Justice Publ., 2021, p. 126.
5. Umarov A.Y. Davlat boshqaruvida sun'iy intellektdan foydalanish: imkoniyatlar va istiqbollar [Using artificial intelligence in public administration: opportunities and prospects]. Application of artificial intelligence technologies in the public civil service: Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. 2024.
6. Eu Ai Act. Regulation (Eu) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council. 2024, July 12. Available at: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=OJ:L_202401689
7. O'zbekistonda sun'iy intellekt rivojiga bag'ishlangan seminar: NVIDIA kompaniyasi bilan hamkorlik [Seminar on the development of artificial intelligence in Uzbekistan: cooperation with NVIDIA]. Available at: <https://digital.uz/oz/news/view/37070>
8. AI in Public Administration – Lessons from EU and Korea. Available at: <https://www.freiheit.org/north-and-south-korea/ai-public-administration-lessons-eu-and-korea>
9. The European Union. Artificial Intelligence Act. dated 2024, May 21. Available at: https://www.gentemizer.com/wp-content/uploads/2024/10/202409_European-Union-Artificial-Intelligence-Act-Enters-into-Force.pdf
10. Utilizing the Opportunities of Safe and Reliable Artificial Intelligence Systems for Sustainable Development. The United Nations Resolution, 2024, March 21. Available at: <https://news.un.org/en/story/2024/03/1147831>
11. Zheng Y., Yu H., Cui L., Miao C., Leung C. Yang Q. SmarHS: An AI Platform for Improving Government Service Provision. *Proceedings of the AAAI Conference on Artificial Intelligence*, 2018, vol. 32(1), pp. 7704–7711. DOI: 10.1609/aaai.v32i1.11382.
12. Institute of Public Administration Australia. In Brief - Artificial Intelligence in the Public Sector . Linked infographic based on information by Castro D., Nichols S., Ellis E., Stoddard C. (Adobe Chief Information Officer) and Government Technology reporting. 2019 January 1.
13. Cho W.K.T., Cain B.E. AI and Redistricting: Useful Tool for the Courts or Another Source of Obfuscation? pp. 395–408.
14. AI for citizen services and government. Hila Mehr, 2017.
15. Shrum K., Gordon L. AI and its impact on Public Administration. National academy of Public administration. 2019.
16. Mark T., John F. Cooney Using Artificial Intelligence in Administrative Agencies. Available at: <https://www.theregreview.org/2021/05/26/thomson-cooney-ai-administrative-agencies/>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 2-SON

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.